



BUXORO VILOYATIDA SAVDO XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISHNING TENDENSIYALARI VA PROGNOZ PARAMETRLARI

Raxmatov Akmal Anvar o'g'li

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti

ORCID: 0009-0004-8327-2702

raanakmal@mail.ru

Annotatsiya. Maqolada Buxoro viloyatida savdo sohasining 2012-2023 yillardagi asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlarining dinamikasi tahlil qilingan. Savdo faoliyati bilan bog'liq ko'rsatkichlarning istiqboldagi dinamikasiga baho berishda ijtimoiy-iqtisodiy hodisalarning trend tahlilidan foydalanilib, alohida olingan ko'rsatkichlarning tematik prognozlari asosida umumlashgan qamrovli prognoz modeli ishlab chiqilgan. Ushbu modellarga asoslangan holda sohani rivojlantirishning 2025-2027 yillarga mo'ljallangan optimistik va pessimistik prognoz ssenariylarini ishlab chiqish masalalari yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: savdo xizmatlari, savdo aylanmasi, regressiya tenglamasi, trend tenglamasi, optimistik prognoz ssenariysi, pessimistik prognoz ssenariysi.

ТЕНДЕНЦИИ И ПРОГНОЗНЫЕ ПАРАМЕТРЫ РАЗВИТИЯ ТОРГОВЫХ УСЛУГ БУХАРСКОЙ ОБЛАСТИ

Рахматов Акмал Анвар угли

Самаркандский институт экономики и сервиса

Аннотация. В статье анализируется динамика основных экономических показателей сферы торговли Бухарской области в 2012-2023 годах. На основе трендовый анализ социально-экономических показателей динамики торговой деятельности, разработана обобщенная комплексная прогнозная модель и разработаны оптимистичные и пессимистичные прогнозных сценариев на 2025-2027 годы.

Ключевые слова: торговые услуги, торговый оборот, уравнение регрессии, прогнозный тренд, оптимистический сценарий, пессимистический сценарий.

TRENDS AND FORECAST PARAMETERS OF THE DEVELOPMENT OF TRADE SERVICES IN THE BUKHARA REGION

Rakhmatov Akmal Anvar ugli

Samarkand Institute of Economics and Service

Abstract. The article analyzes the dynamics of the main economic indicators of the trade sector of the Bukhara region in 2012-2023. Based on the trend analysis of socio-economic indicators of the dynamics of trading activity, a generalized complex forecast model has been developed and optimistic and pessimistic forecast scenarios for 2025-2027 have been developed.

Keywords: trading services, trade turnover, regression equation, forecast trend, optimistic scenario, pessimistic scenario.

Kirish.

Jahonda prognozlashtirishning zamonaviy usul va uslubiyati tanlangan ob'ektning asosiy ko'rsatkichlarini trend modellari yordamida baholash hamda ko'plab to'plam elementlari o'rtasidagi o'zaro bog'lanishlarini taqqoslash imkonini beradi. Shu boisdan ham taniqli iqtisodchi olimlar tomonidan savdo xizmatlarini innovatsion rivojlantirishda mintaqaning innovatsion salohiyatini baholashda trend modellarining ahamiyatiga alohida ustuvorlik berilib, asosiy e'tibor ularni tanlash mezonlarini belgilashdan iborat bo'lmoqda.

So'nggi yillarda Buxoro viloyatining hududiy iqtisodiyoti 1,5 barobar o'sib, 53 trillion so'mdan oshgan, aholi jon boshiga to'g'ri keladigan YAHM 26 million so'mga yetgan. Savdo sohasini rivojlantirish maqsadida tadbirkorlarni eksportga yo'naltirish, sanoatda importni 150 million dollarga qisqartirib, eksportni 400 million dollarga yetkazish vazifalari kelgusida savdo sohasining joriy dinamikasiga asoslangan prognoz parametrlarini ishlab chiqishni, prognozlash modellarining aniqlilik darajasini oshirish dolzarb hisoblanadi.

Adabiyotlar sharhi.

Prognoz parametrlarini ishlab chiqishda trend modellaridan foydalanish masalalari xorijlik olimlardan Dey (2023) ilzmiy ishlarida "eksport hajmini neyron tarmoqlar orqali prognozlash, ko'p omilli va bir omilli prognozlash modellarini yaratish orqali eksport hajmi prognoz va haqiqiy savdo hajmini o'zaro taqqoslashga hamda an'anaviy prognozlash usullarining aniqlilik darajasini 15% oshirishga erishilgan".

Molchanov (2019)ning tadqiqotlarida "Kichik biznes sub'ektlarida sotuv hajmini prognozlashda matematik-statistika usullaridan foydalanish, vaqt qatorlari va mavsumiylikni tekshirishda ARIMA-modelidan foydalanish maqsadga muvofiq" ligi asoslab berilgan.

Konoshenko (2012)ning ilmiy ishlarida "Savdo korxonalarini tizim sifatida o'rganilib, savdo jarayonining o'zgaruvchanligini zanjirli prognozlash usuliga ustuvorlik berilgan holda prognozlash" taklif qilingan.

Mamlakatimiz olimlaridan savdo sub'ektlarining hududiy harakterdagi xizmat ko'rsatish faoliyatini innovatsion rivojlantirish salohiyatini baholash modellarini tadqiq etish, prognoz ko'rsatkichlarini ko'p omilli ekonometrik modellashtirish masalalari jumladan, Jurayev (2021) tomonidan "O'zbekiston qishloq xo'jaligida mahsulotlar ishlab chiqarishning rivojlanish tendensiyasi Respublika hamda Qashqadaryo viloyati ko'rsatkichlarida qiyosiy tahlil asosida qishloq xo'jaligida yer fondidan foydalanish ko'rsatkichlarining o'zgarish dinamikasidagi mamlakat va uning tarkibiy mintaqalarida turlichalikning, bu miqdoriy tafovutlarning vujudga kelishi trend qonuniyatlari yoritilgan.

Tadqiqotchi G'afforov (2024) tomonidan Qashqadaryo viloyati hududida ishsizlikning kelib chiqish sabablari, jamiyatga ta'siri, yechimlari va mintaqada ishsizlik darajasining prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan.

Raximov (2023) tomonidan yashash va umumiy ovqatlanish xizmatlarining rivojlanish tendensiyasini tadqiq etish asosida asosiy ko'rsatkichlar bo'yicha mintaqaning salohiyatini baholangan hamda boshqa turdosh xizmatlar bilan uyg'unlikda rivojlanish qonuniyatlari mavjud ekanligi ekonometrik modellashtirish yordamida tadqiq etilgan.

Maxmatkulov (2023)larning ilmiy tadqiqotlarida Savdo subyektlarining hududiy asosiy ko'rsatkichning prognoz ko'rsatkichlarini hisoblashda modellashtirish usulining ahamiyati, xususan, ko'p omilli ekonometrik modellashtirishning afzallik jihatlari yoritilgan bo'lib ko'p omilli model yordamida hisoblanadigan prognoz qiymatlarining aniqliligini ta'minlashda trend modellarini tanlash mezonlarining ahamiyatlilik darajasi tahlil etilgan.

Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqot davomida induksiya va deduksiya, guruhlash, mantiqiy tahlil usullardan foydalanilgan. Tadqiqot natijalarini umumiy yaxlit tarzda ifodalash maqsadida jadvallardan foydalanilgan. Tadqiqot gipotezasi alohida olingan ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarning prognoz trendini umumlashtirish asosida prognoz parametrlarining optimistik modelini, o'zaro ayirmasi asosida pessimistik prognoz modelini ishlab chiqish mumkinligiga asoslanadi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Buxoro viloyatida savdo xizmatlari rivojlanishining tendensiyalarini aniqlash va ushu asosda prognoz parametrlarini ishlab chiqish ushbu tarmoq tendensiyasini har tomonlama tahlil qilish, baholashga qaratilgan. Mazkur jarayonda quyidagilarni amalga oshirish ko'zda tutilgan:

- savdo xizmatlari rivojlanishining mavjud tendensiyalari va o'zgarish sur'atlarini aniqlash;
- iste'mol bozorining hajmi, tovar tuzilmasini, resur ta'minotini, aholining savdo madaniyatini hisobga olgan holda turmush darajasi va farovonligini oshirish muammolarini hal qilish (Abdullayev, 2011);
- savdo xizmatlari ko'rsatishning hududiy xususiyatlari va muammolarni aniqlash va samarali hal etish;
- savdo xizmatlarini rivojlantirish; aholi jon boshiga to'g'ri keladigan savdo nuqtalari hamda savdo sohasida tovar aylanmasi davrining dinamikasiga qarab viloyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlariga tuzatishlar kiritish.

Prognozlash jarayonida ko'rsatkichlarning iqtisodiy mazmuni nazariy jihatdan chiqyr o'rganiladi va shu asosida matematik modeli tanlab olinadi. "...by yerda ishlab chiqarish fynksiyalarini qaysi birini mosligini tanlash o'rganilayotgan iqtisodiy jarayonlarning o'ziga xos xysysiyatlaridan kelib chiqib, ekonometrik model tanlanadi va ma'lymotlar to'planadi. Shyndan so'nggina prognozlash amallari bajarilib, oxirgi natijalar asosida ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqiladi" (Dosmuratova, 2014). Biz tomonimizda olib borilgan tadqiqotlarda asosan regression tahlil amalga oshirilgan. Chunki ishda belgilangan vazifaga asoslanib, Buxoro viloyatida savdo xizmatlari ko'rsatish holati (natijaviy o'zgaruvchi)ning kelgusi 2025-2027 yillarda shartli o'rtacha qiymatining bog'liqligini baholashdan iborat.

Buxoro viloyatida savdo xizmatlari rivojlanishining kelgusi istiqoldagi prognoz ko'rsatkichlarini ishlab chiqishda hisoblash ishlarini shartli ravishda uch bosqichda amalga oshirish maqsadga muvofiq. Chunki savdo faoliyati bilan bog'liq bo'lgan ko'rsatkichlarni tanlab olish, to'plangan ma'lumotlarning yetariligi va ishonchliligi muhimdir. Tadqiqot ishida Buxoro viloyatida savdo xizmatlari ko'rsatish bilan bog'liq 12 ta ko'rsatkich tanlab olindi va ularning 2012-2023 yillardagi statistik qiymatlari shakllantirildi (1-jadval).

Ushbu ko'rsatkichlar asosida Buxoro viloyatida savdo xizmatlari rivojlanishining kelgusi istiqboldagi prognoz ko'rsatkichlarini aniqlash uchun savdo faoliyati bilan bog'liq bo'lgan har bir ko'rsatkichning dinamikasini chuqur tahlil qilish lozim. Savdo faoliyati bilan bog'liq ko'rsatkichlarning dinamikani aniqlash uchun ijtimoiy-iqtisodiy hodisalarning trend tahlilidan foydalanish maqsadga muvofiq. Aynan alohida olingan ko'rsatkichlarning tematik prognozi kelgusida umumlashgan qamrovli prognoz modelini ishlab chiqishda juda muhimdir. Ikkinchi bosqichda bir omilning xususiy regressiya tenglamasini ifodalaymiz (2-jadval)

Buxoro viloyatida savdo sohasi faoliyati asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlarining 2012-2023 yillardagi dinamikasi⁵⁷

| Ko'rsatkichlar | omillar | 2012 yil | 2013 yil | 2014 yil | 2015 yil | 2016 yil | 2017 yil | 2018 yil | 2019 yil | 2020 yil | 2021 yil | 2022 yil | 2023 yil |
|---|-----------------|-------------|-------------|-------------|-------------|-------------|-------------|-------------|-------------|-------------|-------------|-------------|-------------|
| chakana savdo tovar aylanmasi hajmining o'sish dinamikasi | X ₁ | 130,9 | 130,9 | 124,9 | 121,3 | 125,2 | 117,2 | 127,3 | 123,1 | 117,1 | 121,0 | 126,6 | 99,3 |
| aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi hajmining o'sish dinamikasi | X ₂ | 117,6 | 129,1 | 122,9 | 119,4 | 123,2 | 115,5 | 125,7 | 121,2 | 115,5 | 119,3 | 104,6 | 116,3 |
| chakana savdo xizmatlari ko'rsatuvchi iqtisodiy sub'ektlar soni dinamikasi | X ₃ | 125,2 | 117,2 | 127,3 | 148,4 | 114,8 | 97,9 | 104,0 | 91,2 | 156,7 | 81,0 | 103,6 | 100,1 |
| aholining savdo ob'ektlari bilan ta'minlanganlik darajasi dinamikasi | X ₄ | 122,2 | 114,2 | 155,2 | 150,6 | 112,8 | 98,1 | 96,2 | 108,0 | 137,0 | 160,8 | 221,0 | 101,6 |
| chakana tovar aylanmasi davri dinamikasi | X ₅ | 150,0 | 110,0 | 110,1 | 130,0 | 120,0 | 130,1 | 160,0 | 160,0 | 120,0 | 50,0 | 110,0 | 110,0 |
| Ulgurji savdo tovar aylanmasi dinamikasi | X ₆ | 102,4 | 109,1 | 111,0 | 107,1 | 116,5 | 108,6 | 105,0 | 144,0 | 121,0 | 136,0 | 170,3 | 107,3 |
| ulgurji tovar aylanmasi davri dinamikasi | X ₇ | 142,2 | 108,6 | 118,0 | 118,9 | 121,5 | 118,6 | 115,7 | 131,7 | 122,4 | 66,8 | 125,7 | 104,5 |
| Yangi tashkil etilgan korxonalar soni dinamikasi | X ₈ | | | | 48,0 | 116,0 | 118,5 | 76,9 | 60,2 | 99,6 | 91,4 | 444,6 | 70,7 |
| Tovarlar importi dinamikasi | X ₉ | 90,7 | 129,8 | 99,0 | 87,2 | 75,4 | 148,5 | 107,5 | 137,2 | 60,4 | 144,8 | 105,7 | 99,2 |
| Tovarlar eksporti dinamikasi | X ₁₀ | 140,6 | 93,6 | 88,7 | 102,7 | 81,5 | 77,0 | 92,8 | 142,0 | 86,9 | 135,1 | 98,2 | 95,3 |
| Oziq-ovqat mahsulotlari tovar aylanmasi hajmining o'sish dinamikasi | X ₁₁ | 118,4 | 109,1 | 113,7 | 115,1 | 113,6 | 100,1 | 107,5 | 108,4 | 111,9 | 118,4 | 114,3 | 117,7 |
| Nooziq-ovqat mahsulotlari tovar aylanmasi hajmining o'sish dinamikasi | X ₁₂ | 138,3 | 115,8 | 100,5 | 112,0 | 114,8 | 100,0 | 122,7 | 132,5 | 100,1 | 138,3 | 159,5 | 103,8 |

⁵⁷ Buxoro viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

2-jadval

Buxoro viloyatida savdo sohasi faoliyati asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlarining trend tenglamasi⁵⁸

| Ko'rsatkichlar | omillar | Trend tenglamasi | R ² |
|---|-----------------|---|----------------|
| Chakana savdo tovar aylanmasi hajmining o'sish dinamikasi | x ₁ | $Y = -0,1175x^2 + 0,02x + 128,3$ | 0,433 |
| Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi hajmining o'sish dinamikasi | x ₂ | $Y = -0,958x + 125,42$ | 0,309 |
| Chakana savdo xizmatlari ko'rsatuvchi iqtisodiy sub'ektlar soni dinamikasi | x ₃ | $Y = 0,0159x^6 - 0,6184x^5 + 9,2405x^4 - 66,441x^3 + 234,52x^2 - 369,76x + 318,51$ | 0,432 |
| Aholining savdo obyektlari bilan ta'minlanganlik darajasi dinamikasi | x ₄ | $Y = -0,2821x^4 + 7,2475x^3 - 60,64x^2 + 183,87x - 26,219$ | 0,634 |
| Chakana tovar aylanmasi davri dinamikasi | x ₅ | $Y = 0,0019x^4 - 0,0508x^3 + 0,4375x^2 - 1,3784x + 2,4777$ | 0,587 |
| Ulgurji savdo tovar aylanmasi dinamikasi | x ₆ | $Y = -0,0079x^6 + 0,2876x^5 - 4,0541x^4 + 28,113x^3 - 99,058x^2 + 164,21x + 11,868$ | 0,742 |
| Ulgurji tovar aylanmasi davri dinamikasi | x ₇ | $Y = -0,0622x^3 + 1,2058x^2 - 8,4733x + 137,52$ | 0,166 |
| Yangi tashkil etilgan korxonalar soni dinamikasi | x ₈ | $Y = -2,8405x^4 + 55,265x^3 - 354,77x^2 + 858,61x - 529,25$ | 0,584 |
| Tovarlar importi dinamikasi | x ₉ | $Y = -0,0212x^6 + 0,8434x^5 - 13,031x^4 + 98,063x^3 - 368,41x^2 + 628,96x - 255,62$ | 0,314 |
| Tovarlar eksporti dinamikasi | x ₁₀ | $Y = -0,4335x^3 + 9,04x^2 - 53,404x + 180,12$ | 0,451 |
| Oziq-ovqat mahsulotlari tovar aylanmasi hajmining o'sish dinamikasi | x ₁₁ | $Y = 0,0043x^6 - 0,1744x^5 + 2,7138x^4 - 20,439x^3 + 76,542x^2 - 131,62x + 191,39$ | 0,826 |
| Nooziq-ovqat mahsulotlari tovar aylanmasi hajmining o'sish dinamikasi | x ₁₂ | $Y = -0,0096x^6 + 0,3402x^5 - 4,5819x^4 + 28,982x^3 - 84,785x^2 + 90,578x + 106,97$ | 0,699 |

Ma'lumki ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning dinamik modellari nochiziqli xususiyatga ega bo'lgan holda hudud rivojlanishining ko'tarilish (pasayish) tendensiyasini ifodalashga xizmat qiladi. Xususiy trend tenglamalarining turlicha ifodalanishi Buxoro viloyatida savdo sohasi bilan bog'liq iqtisodiy jarayonlarning ham turlicha rivojlanish xususiyatiga ega ekanligi, hududlar kesimida turlicha dinamikaga ega ekanligidan dalolat beradi.

Uchinchi bosqichda xususiy trend tenglamalari asosida Buxoro viloyatida savdo sohasi rivojlanishining umumlashgan prognoz modelini shakllantiriladi. Mazkur model xususiy trend modellari yig'indisidan iborat bo'lgan additiv modelni o'zida aks ettiradi:

$$Y = a + bx_1 + cx_2 + dx_3 + ex_4 + fx_5 + gx_6 + hx_7 + ix_8 + jx_9 + kx_{10} + lx_{11} + mx_{12} \quad (1)$$

Bu yerda:

a, b, c, ... m – model parametrlari.

Tanlangan model parametrlarini izohlash uchun umumlashgan prognoz modelini shakllantiramiz. Ushbu trend modeli biz yuqorida ko'rib chiqilgan 12 ta ko'rsatkich bo'yicha hisoblab chiqilgan xususiy trend modellarining yig'indisini aks ettiradi:

$$Y = 130,24x_3^3 + 0,678x_9^5 - 12,269x_9^4 - 644,035x_9^2 + 1360,652x_8 - 0,019x_{12}^6 + 391,487 \quad (2)$$

Umumlashgan prognoz modeliga ko'ra Buxoro viloyati savdo sohasiga ta'sir ko'rsatuvchi asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlar bo'lib, oziq-ovqat mahsulotlari tovar aylanmasi hajmining o'sish dinamikasi (x₃), yangi tashkil etilgan korxonalar soni dinamikasi (x₈), tovarlar importi

⁵⁸ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

dinamikasi (x_9) va nooziq-ovqat mahsulotlari tovar aylanmasi hajmining o'sish dinamikasi (x_{12}) hisoblanar ekan. Demak:

- oziq-ovqat mahsulotlari tovar aylanmasi hajmining o'sish dinamikasi 1% ga o'sishi savdo xizmatlari hajmining 130,2% ga o'sishiga olib keladi;
- yangi tashkil etilgan korxonalar sonining 1% ga ko'payishi savdo xizmatlari hajmining 13,6 marotabaga ko'payishiga olib keladi;
- tovarlar importining 1% ga ko'payishi savdo xizmatlari hajmining 6,5 marotaba kamayishiga olib keladi;
- nooziq-ovqat mahsulotlari tovar aylanmasi hajmining 1% ga ko'payishi savdo xizmatlari hajmining 0,019 % ga kamayishiga olib keladi.

Yuqoridagi (1) model asosida Buxoro viloyati savdo sohasi rivojlanishining pessimistik prognoz ssenariysini tuzib chiqamiz. Bunda 3-jadvalda keltirilgan har bir omil bo'yicha tematik modellarning o'zaro ayirmasidan iborat eng kichik qiymatini olamiz:

$$Y = 0,0503x_3^6 - 1,9152x_{12}^5 + 30,750x_3^4 - 262,126x_9^2 - 645,8x_3^3 - 1360,614x_9 - 134,887 \quad (3)$$

Pessimistik ssenariyga ko'ra tanlab olingan barcha omillar Buxoro viloyati savdo sohasi rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlar sifatida olib qaraladi. Mazkur pessimistik ssenariyga ko'ra ushbu ko'rsatkichlar oziq-ovqat mahsulotlari tovar aylanmasi hajmining o'sish dinamikasi (x_3), tovarlar importi dinamikasi (x_9) va nooziq-ovqat mahsulotlari tovar aylanmasi hajmining o'sish dinamikasi (x_{12}) hisoblanar ekan. Bundan:

- oziq-ovqat mahsulotlari tovar aylanmasi hajmining 1% ga ko'payishi savdo xizmatlari hajmining 2,25 marotaba ko'payishiga olib keladi;
- tovarlar importining 1% ga ko'payishi savdo xizmatlari hajmining 16,2 marotaba kamayishiga olib keladi;
- nooziq-ovqat mahsulotlari tovar aylanmasi hajmining 1% ga ko'payishi savdo xizmatlari hajmining 1,915% ga kamayishiga olib keladi.

Tahlillar Buxoro viloyatida savdo sohasini rivojlantirishning optimistik va pessimistik prognoz ssenariylarida oziq-ovqat mahsulotlari tovar aylanmasi (x_3) tovarlar importi (x_9) va nooziq-ovqat mahsulotlari tovar aylanmasi (x_{12}) asosiy ta'sir ko'rsatuvchi omil ekanligiga guvoh bo'lishimiz mumkin.

Xulosa va takliflar.

2025-2027 yillarda Buxoro viloyatida savdo aylanmasi hajmining 18,5% ga o'sish tendensiyasi hamda ishlab chiqilgan prognoz modeliga ko'ra ulgurji savdo tovar aylanmasi dinamikasining 1% ga ortishi savdo xizmatlari hajmining 1624,9 % ga ortishiga olib kelishiga asoslanib, iste'mol tovarlari savdosini tashkil qilishning "ombor klubi" shakli ulgurji savdoning "o'sish omillari" bo'lishi mumkin;

savdo aylanmasi tarkibida oziq-ovqat mahsulotlari tovar aylanmasining barqaror pasayib borish tendensiyasiga asoslanib hududda turmush darajasining sezilarli darajada ortgan.

Hisoblab chiqilgan pessimistik prognoz ssenariysi asosida Buxoro viloyatida savdo xizmatlari hajmining 12,7% ga pasayish ehtimoli kutiladi. Shu maqsadda pasayish ehtimolini bartaraf etishga qaratilgan chora-tadbirlar tarkibida:

- Buxoro viloyatida aholining real ish haqi darajasini 2027 yilga 1,32 marotabaga oshirish choralari ishlab chiqish lozim;
- viloyat savdo sohasida importning ustuvorligi 2027 yilgacha muddatdagi istiqbolda qo'shimcha savdo xizmatlari ko'rsatishni kengaytirish, kelgusida sohada davlat-xususiy sherikligi asosidasavdo xodimlari malakasini oshirish, savdo madaniyatini yuksaltirish hisobiga savdo sohasining ekstensiv o'sish omillariga urg'u berish lozim;

– Buxoro viloyatida tadqiq qilingan davr mobaynida savdo sohasi iqtisodiy subyektlari sonining ko‘payishi hisobiga intensiv o‘shish sur‘atiga ustuvorlik berilganligi bois tarmoqli tuzilmalarni rivojlantirish maqsadga muvofiq.

Adabiyotlar / Lumeputmupa/ Reference:

Dai, C. A. (2023) Method of forecasting trade export volume based on back-propagation neural network. *Neural Comput & Applic* 35, 8775–8784. <https://doi.org/10.1007/s00521-022-07693-5>

G‘afforov, J. (2024). Qashqadaryo viloyati hududida ishsizlikning kelib chiqish sabablari, jamiyatga ta‘siri, yechimlari va mintaqada ishsizlik darajasining prognoz ko‘rsatgichlari. *Iqtisodiy Taraqqiyot Va Tahlil*, 2(5), 89-96. <https://doi.org/10.60078/2992-877X-2024-vol2-iss5-pp89-96>

Qaror (2022) O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 28-sentyabr 2022-yildagi 543-son “ 2022-2026 yillarda Buxoro viloyatida turizm sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qarori.

Абдуллаев, О. (2011). Ижтимоий - иқтисодий жараёнларни прогнозлашнинг услубий асослари. *Иқтисодиёт ва инновацион технологилар*, (2), 13–31. https://inlibrary.uz/index.php/economics_and_innovative/article/view/7713

Досмуратова Ш.К. (2024) Қорақалпоғистон республикасида балиқ ишлаб чиқариш ҳажмининг 2030 йилгача бўлган прогноз кўрсаткичларини ишлаб чиқиш. *Scientific Journal of Actuarial Finance and Accounting*, 4(04), 439-448. https://doi.org/10.55439/AFA/vol4_iss04/255

Жўраев Ф.Д. (2021) Қишлоқ хўжалик маҳсулотлари ишлаб чиқаришда ҳудуднинг базавий салоҳиятини аниқлаш жараёнини эконометрик моделлаштириш (Қашқадарё вилояти мисолида). // “Бизнес-эксперт” иқтисодий илмий-амалий журнал. 8(164)-сон. – Т., 52-58-б.

Коношенко Л.А. (2012) Прогнозирование основных параметров торговой организации // ПСЭ. №2. <https://cyberleninka.ru/article/n/prognozirovanie-osnovnyh-parametrov-torgovoy-organizatsii>

Қарор (2023) Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2023 йил 29 декабрдаги 719-сонли ««Ўзбекистон — 2030» стратегиясини Бухоро вилоятида сифатли ва ўз вақтида амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги қарори.

Махматкулов, Ф. (2022). Аҳолига савдо хизматларини инновацион ривожлантириш салоҳиятини баҳолашда тренд моделларини танлаш мезонлари (Қашқадарё вилояти мисолида). *Iqtisodiyot Va ta‘lim*, 23(4), 381–386. https://doi.org/10.55439/ECED/vol23_iss4/a610

Молчанов Николай Николаевич, Пецольдт Керстин. (2019) Выбор метода прогнозирования объема продаж малого предприятия // Экономика и управление. №4 (162). <https://cyberleninka.ru/article/n/vybor-metoda-prognozirovaniya-obema-prodazh-malogo-predpriyatiya>

Рахимов, А. (2022). Аҳолига яшаш жой ва умумий овқатланиш хизматлари ривожда ички ва ёндош тармоқларнинг таъсирини баҳолаш (Қашқадарё вилояти мисолида). *Iqtisodiyot Va ta‘lim*, 23(4), 397–402. https://doi.org/10.55439/ECED/vol23_iss4/a613